

## TA'LIM SIFATI TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MODELLARINI YARATISH

Sharipova Umeda Tolibjonovna

Kattaqo'rg'on shahar 14-IDUM direktori

Kattaqo'rg'on, O'zbekiston,

E-mail: saripovaumeda425@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20105255>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim sifati tushunchasining nazariy-metodologik asoslari, uning mohiyati, tarkibiy elementlari va baholash mezonlari tahlil qilinadi. Xususan, mavzuga oid o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari – J.G'.Yo'ldoshev, N.J.Jo'rayeva, B.Shermuhammadov, M.Otabayeva, V.Bozorov, S.Donayev va boshqalarning tadqiqotlari asosida ta'lim sifatiga kompleks yondashuv yoritiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy modellari – TQM (umumiy sifat boshqaruvi), ISO standartlari, tarmoqli (network), transformatsion modellar, shuningdek, O'zbekistonda joriy etilayotgan 4K modeli, davlat-jamoat boshqaruvi modeli va raqamli baholash tizimlari tahlil qilinadi. Maqola ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar va ta'lim siyosati ishlab chiquvchilar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqaruv, zamonaviy boshqaruv modellari, TQM, 4K modeli, davlat-jamoat boshqaruvi, raqamli transformatsiya, O'zbekiston olimlari.

**Annotation.** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the concept of education quality, its essence, structural components, and evaluation criteria. In particular, a comprehensive approach to education quality is highlighted based on the scientific views and research of Uzbek scholars such as J.G. Yuldoshev, N.J. Jurayeva, B. Shermuhammadov, M. Otabayeva, V. Bozorov, S. Donayev and others. Furthermore, modern models of education quality management are examined, including TQM (Total Quality Management), ISO standards, network models, transformational models, as well as the 4K model being implemented in Uzbekistan, the state-public governance model, and digital assessment systems. The article is intended for heads of educational institutions, teachers, and policymakers in the field of education.

**Keywords:** education quality, education quality management, modern management models, 4K model, state-public governance, digital transformation, Uzbek scholars.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретико-методологические основы понятия «качество образования», его сущность, структурные элементы и критерии оценки. В частности, на основе научных взглядов узбекских ученых, таких как Ж. Г. Юлдашев, Н. Ж. Джураева, Б. Шермухаммадов, М. Отабаева, В. Бозоров, С. Донаев и других, освещается комплексный подход к качеству образования. Также рассматриваются современные модели управления качеством образования: TQM (всеобщее управление качеством), стандарты ISO, сетевые (network) и трансформационные модели, а также внедряемые в Узбекистане модель «4К», модель государственно-общественного управления и системы цифрового оценивания. Статья предназначена для руководителей образовательных учреждений, педагогов и специалистов в области образовательной политики.

**Ключевые слова:** качество образования, управление качеством образования, современные модели управления, TQM, модель 4K, государственно-общественное управление, цифровая трансформация, ученые Узбекистана.

Jahon ta’lim tizimida globalizatsiya, raqamlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar jarayonida ta’lim sifati strategik masalalardan biriga aylandi. Sifatli ta’lim – bu nafaqat bilim, ko’nikma va malakalar yig’indisi, balki shaxsning raqobatbardoshligi, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotning negizidir. Biroq “ta’lim sifati” tushunchasining mohiyati turli madaniy, iqtisodiy va pedagogik kontekstlarda turlicha talqin etiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko’rsatish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi <sup>1</sup>Farmonida ta’lim tashkilotlarida o’quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ta’lim sifatining ilmiy jihatdan aniq asoslanishi va zamonaviy boshqaruv modellari bilan bog’liq holda o’rganilishi dolzarb hisoblanadi.

**Ta’lim sifati tushunchasining mohiyati: o’zbek olimlarining qarashlari.** Ta’lim sifati ko’p qirrali va dinamik kategoriya hisoblanadi. O’zbekistonlik olim N.J.Jo’rayevaning ta’kidlashicha, “Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ta’limi va tarbiyasi masalasi ta’lim sohasining ustuvor yo’nalishi bo’lib, ta’lim sifatini ta’rifi bo’yicha doimiy muhokamalar kuzatilmoqda, bunda asosiy urg’u ta’lim oluvchilarni o’qishdagi erishgan yutuqlari, tegishli muassasalarning faoliyati, hamda ta’lim xizmatlarini yetkazib berish sifati kabi masalalarga qaratilmoqda<sup>2</sup>”. Sifat tamoyili nafaqat umumiy o’rta ta’limni, balki ilmiy bilimlarga asoslangan farovon jamiyat qurish sharoitida oliy ta’limni takomillashtirishda ham yetakchi hisoblanadi.

Ta’lim sifatining asosiy komponentlari o’zbek tadqiqotchilari tomonidan quyidagicha tasniflanadi:

<b>Komponentlar</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>Resurs potentsiali</b>	moddiy-texnika bazasi, moliyalashtirish, o’qituvchilar malakasi
<b>Ta’lim jarayoni</b>	dasturlar, metodlar, texnologiyalar, boshqaruv jarayonlari
<b>Natijalar</b>	bitiruvchilarning bilim darajasi, kompetensiyalari, ijtimoiy faolligi va mehnat bozorida talabga ega bo’lishi

S.Donayevning fikricha, “Ta’lim sifati – bu ta’lim natijalarining davlat talablari, jamiyat va shaxs kutganlariga moslik darajasi<sup>3</sup>”. Ushbu ta’rifda sifatning nisbiyligi va kontekstga bog’liqligi alohida ta’kidlanadi. Donayev, shuningdek, “Sifatni o’lchash va baholash haqidagi fan – kvalimetriya” fanining ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi muhimligini qayd etadi. Uning tadqiqotlarida ta’lim sifatini boshqarishning ishlab chiqarish sohasidagi modellardan farqli jihatlari – ta’lim jarayonining insonparvarlik xususiyati, natijalarni o’lchashning murakkabligi va ijtimoiy omillarning kuchli ta’siri alohida tahlil qilinadi.

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2025 y. PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko’rsatish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni.

<sup>2</sup>Jo’rayeva, N.J. (2023). Maktab ta’lim sifati tushunchasining mazmuni va umumiy o’rta ta’limdagi mohiyati. *Axborotnoma*.

<sup>3</sup> Donayev S. (2024). The significance of the education quality management model in the development and democratization processes of society. *European International Journal of Pedagogics*, 4(12), 182–187.

B.Shermuhammadov esa ta'lim sifatini xorijiy tajribalar kontekstida tahlil qilib, “Rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda xizmatlarning innovatsion yo'nalishlaridan bo'lgan ta'lim xizmatlarini jadal sur'atlarda rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, xizmatlar eksportini o'stirish<sup>4</sup>” mamlakat innovatsion rivojlanishining muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Uning ishlarida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xorijiy talabalarning ulushini 2019 yildagi 1% dan 2025-yilgacha 10% va 2030-yilgacha 15% ga olib chiqish vazifasi belgilangani alohida qayd etiladi.

**Ta'lim sifatini boshqarish – nazariy yondashuvlar.** Ta'lim sifatini boshqarish – ta'lim muassasasining barcha resurslari va jarayonlarini sifat maqsadlariga erishish uchun muvofiqlashtirilgan faoliyatdir. Zamonaviy boshqaruv quyidagi asosiy modellar asosida quriladi.

**Umumiy sifat boshqaruvi (TQM) modeli.** TQM ta'limda E. Deming, J. Juran, F. Krosbi g'oyalari asosida rivojlangan. U uzluksiz takomillashtirish (kaizen), mijozlar ehtiyojiga yo'naltirilganlik, jarayonli yondashuv va xodimlarning faolligini nazarda tutadi. Ta'limda TQM quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Rahbarning sifati bo'yicha mas'uliyati;
- Har bir xodimning o'z jarayonida sifat uchun javobgarligi;
- Faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish;
- Tashqi va ichki manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik.

**ISO 9001 standartlari asosidagi model.** ISO 9001 talablari ta'lim muassasalarida hujjatlangan sifat menejmenti tizimini yaratishga yo'naltirilgan. O'zbekistonda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etilgan bo'lib, u “o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida tashqi sifat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi” hisoblanadi. Agentlik ta'lim sifatini tashqi baholashni kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi shaklida amalga oshiradi.

**Tarmoqli (network) va transformatsion modellar.** Tarmoqli model – bu ta'lim muassasalari, ish beruvchilar, mahalliy hokimiyat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalar asosida sifatni boshqarishdir. Masalan, klasterli boshqaruv, universitet-sanoat hamkorligi.

S.Donayev tadqiqotlarida “Davlat-jamoat boshqaruvi modeli” alohida tahlil qilinadi. Uning fikricha, “davlat-jamoat munosabatlari ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini yaratish, tarqatish va iste'mol qilishda ishtirok etuvchi odamlar guruhlari va ular vakili bo'lgan tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ifodalaydi<sup>5</sup>”. Ushbu modelda jamoatchilik ta'lim boshqaruvida “haqiqiy teng ijtimoiy sherik” sifatida namoyon bo'ladi. Donayevning ta'kidlashicha, ta'lim muassasasi darajasida jamoat tuzilmalari – ta'lim muassasasi kengashi, homiylar kengashi, talabalar huquqlarini himoya qilish kengashi, ta'lim sifati kengashi kabi tuzilmalar alohida ahamiyatga ega.

---

<sup>4</sup> Shermuhammadov, B. (2024). The use of advanced foreign experiments and models in assessing the quality of education in higher educational institutions. *Advanced Economics and Pedagogical Technologies*, 1(1), 159–166.

<sup>5</sup> Donayev S. (2024). The significance of the education quality management model in the development and democratization processes of society. *European International Journal of Pedagogics*, 4(12), 182–187.

Transformatsion model esa (J. MacBeath va boshqalar) yetakchilik va tashkilot madaniyatini o'zgartirish orqali sifatga erishishni ko'zda tutadi. V.Bozorov ta'limni transformatsiyalash sharoitida “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati” ni alohida tadqiq etgan.

**O'zbekistonda joriy etilayotgan 4K ta'lim modeli.** O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda “4K modeli” keng joriy etilmoqda. M.Xayitboyeva va O.Muhammadjonovalarning tadqiqotlarida qayd etilishicha, “Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan o'quv-metodik komplekslar asosini tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, ijodkorlik (kreativlik) va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi”<sup>6</sup>. Ushbu model quyidagi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

<b>4K komponenti</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>Kollaboratsiya (jamoada ishlash)</b>	o'quvchilarning hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari
<b>Kommunikativlik (muloqot)</b>	fikrlarni aniq, ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish
<b>Kreativ fikrlash (ijodkorlik)</b>	yangi yondashuvlarni qo'llash, innovatsion yechimlar ishlab chiqish
<b>Kritik fikrlash (tanqidiy fikrlash)</b>	axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, “PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda “4K”ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan” .

**Raqamli transformatsiya va elektron baholash tizimlari.** M.Otabayevaning tadqiqotlarida “ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlarini boshqarish tizimini takomillashtirishning metodologik va strategik asoslari” tahlil qilinadi. Uning fikricha, “Zamonaviy ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari sun'iy intellekt, o'rganish analitikasi va bulutli platformalar kabi ilg'or raqamli texnologiyalarni integratsiyalashni talab qiladi”<sup>7</sup>. M.Otabayeva Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya misolida raqamli transformatsiyaning ilg'or modellarini o'rganib, O'zbekiston uchun xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan konseptual ramka taklif etadi.

G.Nauruzbayeva esa “Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning elektron tizimlari, ularning afzalliklari, amaliy tatbiqi va zamonaviy ta'lim tizimiga ta'siri”<sup>8</sup>ni tahlil qilib, “O'zbekiston ta'lim tizimida ‘Elektron maktab’, ‘Elektron kundalik’, ‘Masofaviy test tizimi’, ‘Moodle’, ‘Classroom’ kabi platformalarning joriy qilinishi” muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, “elektron baholash vositalari ta'limni individuallashtirish, natijalarni tez va aniqlik bilan olish, tahlil qilish va rivojlantirishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi”.

<sup>6</sup> Xayitboyeva M., Muhammadjonova O. (2024). Boshlang'ich sinflarning ta'lim samaradorligini oshirishda 4K ta'lim modelining o'rni va ahamiyati. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 1(4), 274–275.

<sup>7</sup> Otabayeva M. (2025). Improving the management system of educational quality control mechanisms. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(7), 526–531.

<sup>8</sup> Nauruzbayeva G. (2025). Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning elektron tizimi. *Science and Research*, 2(7), 249–253.

**Zamonaviy boshqaruv modelini yaratishning asosiy bosqichlari.** O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari asosida integral sifat boshqaruv modelini yaratishda quyidagi bosqichlar tavsiya etiladi:

1. **Tashxis** – mavjud sifat holati, kuchli va zaif tomonlar SWOT-tahlil orqali baholanadi.
2. **Sifat siyosatini belgilash** – maqsadlar, qadriyatlar, strategik ustuvorliklar shakllantiriladi.
3. **Jarayonlar xaritasini tuzish** – barcha ta’lim va yordamchi jarayonlar aniqlanadi, mas’ullar va resurslar belgilanadi.
4. **Mezon va indikatorlar ishlab chiqish** – sifatni o‘lchash uchun aniq va o‘lchovli ko‘rsatkichlar (o‘qituvchi va talabalarning qoniqish darajasi, bitiruvchilarning bandligi, attestatsiya natijalari) qabul qilinadi.
5. **Monitoring va feedback tizimi** – so‘rovnomalar, auditlar, o‘z-o‘zini baholash, reytinglar asosida ma’lumotlar yig‘iladi va tahlil qilinadi. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilayotgan “Ta’lim natijalarini baholashning milliy modeli” bu borada muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.
6. **Uzluksiz takomillashtirish** – tahlil natijalari asosida tuzatuvchi va oldini oluvchi choralar ishlab chiqilib, jarayonlarga integratsiya qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ta’lim sifati mohiyatan nisbiy, ko‘p qatlamli va kontekstga bog‘liq tushunchadir. O‘zbekiston olimlari – J.G.Yo‘ldoshev, N.J.Jo‘rayeva, B.Shermuhhammadov, M.Otabayeva, V.Bozorov, S.Donayev va boshqalarning tadqiqotlarida ta’lim sifatining nazariy-metodologik asoslari, uning tarkibiy elementlari va baholash mezonlari kompleks tarzda yoritilgan. Ta’lim sifatini samarali boshqarish faqat standartlashtirish yoki nazorat bilan cheklanib qolmasligi, balki transformatsion yetakchilik, davlat-jamoat hamkorligi, raqamli transformatsiya va uzluksiz rivojlanishga asoslangan zamonaviy modellarni (TQM, tarmoqli model, ISO asosidagi tizim, 4K modeli) uyg‘unlashtirishni talab qiladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar – Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining tashkil etilishi, “Ta’lim natijalarini baholashning milliy modeli”ning ishlab chiqilishi, 4K modeli asosida yangi avlod darsliklarining yaratilishi, elektron baholash tizimlarining joriy etilishi – ta’lim sifatini boshqarishning milliy modelini shakllantirishda muhim qadamlar hisoblanadi.

Ta’lim sifatini boshqaruv modelini yaratishda muhim shart – muassasaning o‘ziga xos shart-sharoitlari, resurslari va manfaatdor tomonlar talablarini inobatga olgan holda moslashtirilgan yondashuvni qo‘llashdir. Kelgusida tadqiqotlarni raqamli transformatsiya (sun‘iy intellekt asosida sifat prognostikasi) va ta’lim sifatining ijtimoiy adolat bilan bog‘liq jihatlarini chuqurlashtirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Jo‘rayeva, N.J. (2023). Maktab ta’lim sifati tushunchasining mazmuni va umumiy o‘rta ta’limdagi mohiyati. *Axborotnoma*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2025 y. PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Shermuhammadov, B. (2024). The use of advanced foreign experiments and models in assessing the quality of education in higher educational institutions. *Advanced Economics and Pedagogical Technologies*, 1(1), 159–166.
4. Otabayeva M. (2025). Improving the management system of educational quality control mechanisms. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(7), 526–531.
5. Xayitboyeva M., Muhammadjonova O. (2024). Boshlang'ich sinflarning ta'lim samaradorligini oshirishda 4K ta'lim modelining o'rni va ahamiyati. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 1(4), 274–275.
6. Nauruzbayeva G. (2025). Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning elektron tizimi. *Science and Research*, 2(7), 249–253.
7. Donayev S. (2024). The significance of the education quality management model in the development and democratization processes of society. *European International Journal of Pedagogics*, 4(12), 182–187.